



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атхамович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aйтиева Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI	208
Egamov Temur Muzaffarovich	



MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Egamov Temur Muzaffarovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: [0009-0004-2923-6532](https://orcid.org/0009-0004-2923-6532)

E-mail: temuregamov742@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy iqtisodiy tafovutlarning kuchayishiga ta'sir etuvchi omillarni, jumladan globalizatsiya, sun'iy intellekt va iqlim o'zgarishi jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi Yevropa Ittifoqi, AQSh, Germaniya va Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun samarali mexanizmlarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xorijiy tajribaning muhim yutuqlari, xususan, Yevropa Ittifoqi koheziya siyosati doirasida Gini koeffitsiyentining 36,2 % dan 33 % ga kamayishi hamda Germaniyada transfer mexanizmlari orqali hududiy konvergentsiyaning 79 % ga erishilgani aniqlangan va ular rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilingan. Xulosada ushbu xorijiy tajribalar rivojlanayotgan mamlakatlar mintaqalarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi, biroq ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiy tafovutlar, tafovutlarni kamaytirish, ilg'or xorijiy tajriba, koheziya siyosati, joyga asoslangan siyosatlar, iqtisodiy konvergentsiya, globalizatsiya ta'siri, sun'iy intellekt ta'siri, iqlim o'zgarishi ta'siri, barqaror rivojlanish.

Abstract. This study examines the factors contributing to the intensification of regional economic disparities in the context of the modern global economy, including the impacts of globalization, artificial intelligence, and climate change. The main objective of the research is to analyze the experience of developed countries such as the European Union, the United States, Germany, and China in order to identify effective mechanisms and develop practical recommendations for developing economies. The results show that key achievements of international practice—particularly the reduction of the Gini coefficient from 36.2 % to 33 % within the framework of the European Union's cohesion policy and the achievement of 79 % regional convergence in Germany through transfer mechanisms—are of significant practical relevance and are compared with the experience of developing countries. The conclusion emphasizes that this international experience can serve as an important methodological basis for ensuring sustainable regional development in developing countries, provided that it is adapted to local conditions.

Key words: regional economic disparities, reducing disparities, advanced international experience, cohesion policy, place-based policies, economic convergence, impact of globalization, impact of artificial intelligence, impact of climate change, sustainable development.

Аннотация. В данной работе рассматриваются факторы усиления региональных экономических диспропорций в условиях современной глобальной экономики, включая влияние глобализации, искусственного интеллекта и изменения климата. Цель исследования заключается в анализе опыта развитых стран, таких как Европейский союз, США, Германия и Китай, с целью выявления эффективных механизмов и разработки практических рекомендаций для экономики развивающихся стран. По результатам исследования установлено, что ключевые достижения зарубежной практики, в частности снижение коэффициента Джини с 36,2 % до 33 % в рамках политики сплочённости Европейского союза, а также достижение 79 % региональной конвергенции в Германии за счёт трансфертных механизмов, представляют значительный практический интерес и сопоставлены с опытом развивающихся стран. В заключении подчёркивается, что данный зарубежный опыт может служить важной методической основой для устойчивого развития регионов развивающихся стран при условии его адаптации к местным социально-экономическим условиям.

Ключевые слова: региональные экономические различия, сокращение диспропорций, передовой зарубежный опыт, политика сплочённости, территориально ориентированная политика, экономическая конвергенция, влияние глобализации, влияние искусственного интеллекта, влияние изменения климата, устойчивое развитие.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida mintaqalar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlar (regional economic disparities) eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu tafovutlar nafaqat mamlakat ichidagi iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi, balki ijtimoiy barqarorlik, aholining farovonligi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining rivojlanish darajasi hamda siyosiy jarayonlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda mintaqaviy tafovutlar 1980-yillarning oxiridan boshlab kuchayib bormoqda, bu esa umumiy daromad tengsizligining ortishiga olib kelmoqda. Jumladan, o'rtacha rivojlangan mamlakatlarda 90-persentil mintaqaning jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 10-persentil mintaqaga nisbatan qariyb 70 % yuqori bo'lib, iqtisodiy konvergentsiya sur'ati yiliga 0,5 % dan past darajada shakllanmoqda¹.

Jahon boyligi 1995–2025 yillar oralig'ida sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, mazkur o'sish mintaqalar o'rtasida mutanosib taqsimlanmagan. Xususan, Osiyo, ayniqsa Sharqiy Osiyo mintaqasi global boylikdagi ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa, Yevropa va Shimoliy Amerika boylikning katta qismini saqlab qolmoqda². Shu bilan birga, aholisi tez o'sib borayotgan Sub-Saxara Afrikada iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Hozirgi zamonaviy tendensiyalar ushbu muammoning murakkabligini yanada oshirmoqda. Globalizatsiya va texnologik o'zgarishlar, bir tomondan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirsa, boshqa tomondan, mintaqaviy tengsizlik dinamikasiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt (AI) ayrim mintaqalarda mehnat bozorining tarkibiy o'zgarishlariga olib kelib, bandlik tuzilmasini qayta shakllantirmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, bu jarayon ayrim hududlarda ishsizlik darajasining 1–2 foiz punktga o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa migratsiya oqimlari va mintaqalararo farqlarga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, AI texnologiyalaridan foydalanish darajasi mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha notekis taqsimlangan bo'lib, kam daromadli mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich qariyb 5 % atrofida shakllanmoqda. Bu holat yuqori malakali mehnat resurslariga talabni oshirgan holda, mehnat bozorida malaka tafovutlarini kamaytirish zaruratini yanada kuchaytiradi³.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) doirasida, xususan 10-maqсад — mamlakatlar ichida va ular o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish — resurslarni yanada samarali va adolatli taqsimlash, ta'lim va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarni belgilab beradi⁴. 2024–2025 yillarda daromad tengsizligi global miqyosda turlicha dinamikani namoyon etayotgan bo'lsa-da, Lotin Amerikasi kabi ayrim mintaqalarda amalga oshirilayotgan siyosiy va institutsional islohotlar ijobiy natijalar berayotganini ko'rsatmoqda⁵.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda mintaqaviy iqtisodiy tafovutlarning kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, Floerkemeier va hammualliflarning⁶ 2021-yilgi tadqiqotida rivojlangan iqtisodiyotlarda yetakchi mintaqalarda jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichi qoloq mintaqalarga nisbatan o'rtacha 70 % yuqori ekani aniqlangan. Ushbu tafovutlar 1980-yillarning oxiridan boshlab ortib borgan bo'lib, 90-persentil va 10-persentil mintaqalar o'rtasidagi nisbat 1950-yillardagi 1,4 ko'rsatkichdan 2016-yilga kelib 1,8 darajaga yetgan. Konvergentsiya sur'ati esa so'nggi o'n yilliklarda nolga yaqinlashgan bo'lib, bu holat savdo shoklari (jumladan, Xitoy importining oshishi), avtomatlashtirish va deindustrializatsiya jarayonlari bilan izohlanadi. Tadqiqotda, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlardagi mintaqaviy tafovutlar rivojlangan mamlakatlarga nisbatan taxminan ikki baravar yuqori ekani qayd etiladi, biroq rivojlangan mamlakatlarda ham bu tafovutlar bandlik, ish haqi va insoniy rivojlanish ko'rsatkichlarida namoyon bo'layotgani ta'kidlanadi.

- 1 Bluedorn, J., Lian, W., Novta, N., & Timmer, Y. (2019, October 9). Widening gaps: Regional inequality within advanced economies. IMF Blog. <https://www.imf.org/en/blogs/articles/2019/10/09/widening-gaps-regional-inequality-within-advanced-economies>.
- 2 Chancel, L., Gómez-Carrera, R., Moshirif, R., Piketty, T., Bauluz, L., Brassac, P., et al. (2025). Regional wealth inequality. In L. Chancel, R. Gómez-Carrera, R. Moshirif, & T. Piketty (Coords.), World inequality report 2026. World Inequality Lab. <https://wir2026.wid.world/insight/regional-wealth-inequality>.
- 3 Cook, W. (2024). AI's impact on regional economic development [White paper]. Center for Regional Economic Competitiveness. <https://www.crec.net/2024/12/ais-impact-on-regional-economic-development-embracing-opportunities-and-mitigating-risks>.
- 4 United Nations Department of Economic and Social Affairs. (2025). The sustainable development goals report 2025. United Nations. <https://doi.org/10.18356/9789211071597>.
- 5 Chrisendo, D., Niva, V., Hoffmann, R., Masoumzadeh Sayyar, S., Rocha, J. C., Jalava, M., & Kummu, M. (2025). Rising income inequality across half of global population and socioecological implications. Nature Sustainability, 8(12), 1601-1613. <https://doi.org/10.1038/s41893-025-01689-4>.
- 6 Floerkemeier, H., Spatafora, N., & Venables, A. J. (2021). Regional disparities, growth, and inclusiveness (IMF Working Paper No. 2021/038). International Monetary Fund. <https://www.imf.org/-/media/files/publications/wp/2021/english/wp2021038-print-pdf.pdf>.



Zhang va hammualliflar⁷ tomonidan olib borilgan tadqiqotda globalizatsiya va iqtisodiy o'sishning daromad tengsizligiga ta'siri tahlil qilingan. Olingan natijalarga ko'ra, iqtisodiy o'sish hamda hukumatning iste'mol xarajatlari daromad tengsizligini kamaytirishga xizmat qiladi, globalizatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy o'lchovlari esa ushbu jarayonga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Mazkur xulosalar rivojlangan mamlakatlarda mintaqaviy tafovutlarni qisqartirishga qaratilgan inklyuziv o'sish siyosatini amalga oshirish zarurligini asoslab beradi.

Ruiz-Rodríguez va hammualliflar⁸ tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda Yevropa mintaqalarida COVID-19 pandemiyasi sharoitida raqamlashtirish darajasi va Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bo'yicha ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlarning dinamikasi o'rganilgan. 2011–2018-yillarda mintaqalar asosan asosiy va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish darajasi bo'yicha farqlangan bo'lsa, 2020-yilda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik omillari muhim ahamiyat kasb etgani aniqlangan.

Mintaqaviy tengsizlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik fazoviy (spatial) ekonometrika yondashuvi asosida ham tahlil qilingan. Kouskoura va hammualliflar⁹ tomonidan chop etilgan tadqiqotda mintaqaviy raqobatbardoshlikni baholash uchun iqtisodiyot, mehnat bozori, qashshoqlik darajasi, sog'liqni saqlash tizimi va boshqa yo'nalishlarni qamrab olgan 10 ta asosiy omil aniqlangan. Ushbu omillar Yevropa Ittifoqining kohezsiya siyosati doirasida mintaqaviy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkinligi asoslab berilgan.

Liu va hammualliflar¹⁰ tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamlashtirishning mintaqaviy tengsizlikka ta'siri baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish qoloq mintaqalarda nisbatan yuqori marjinal samara beradi, biroq bu jarayon samarali amalga oshirilishi uchun infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish zarur.

Hu va hammualliflar¹¹ tomonidan chop etilgan tadqiqotda esa raqamlashtirishning konfiguratsion ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli inklyuziya va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi tengsizlikni qisqartirishga xizmat qilsa, raqamli infratuzilma va ko'nikmalardagi cheklovlar mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni saqlab qolishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ilg'or xorijiy mamlakatlarning mintaqalar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish borasidagi tajribasini o'rganishdan iborat bo'lib, ushbu jarayon ilmiy adabiyotlarni sistematik tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu yondashuv mavzuga oid mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish, turli konsepsiya va natijalarni solishtirish hamda ularning amaliy ahamiyatini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot dizayni sifatida Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses (PRISMA) yo'riqnomasiga muvofiq ishlab chiqilgan sistematik adabiyotlar sharhi (Systematic Literature Review — SLR) usuli tanlandi, chunki mazkur yondashuv mavzuga oid mavjud ilmiy tadqiqotlarning obyektiv, izchil va har tomonlama sintezini ta'minlaydi. SLR usuli tadqiqot mavzusiga doir bilimlarning fragmentarligini kamaytirish hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun konseptual va metodologik asos yaratish nuqtai nazaridan samarali hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa Ittifoqi mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish borasida eng tizimli va institutsional yondashuvni namoyish etmoqda. 2007–2019-yillar oralig'ida Gini koeffitsiyenti 36,2 % dan 33 % gacha pasaygan bo'lib, kam rivojlangan mintaqalarda yalpi ichki mahsulot (GDP) o'sishi va bandlik darajasi sezilarli darajada oshgan (EC, 2025; ECA, 2025). 2021–2027-yillarga mo'ljallangan dasturlarda yashil va raqamli transformatsiyaga ustuvor ahamiyat qaratilgan bo'lib, kam rivojlangan hududlarda yashil investitsiyalar GDP o'sishi va bandlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda.

AQShda Opportunity Zones, infratuzilma grantlari va ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) yo'naltirilgan investitsiyalar orqali "orqada qolayotgan" (left-behind) mintaqalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat olib borilmoqda.

7 Zhang, G., Xie, J., Haq, S. U., & Shahbaz, P. (2025). Global Trends and Local Divides: Investigating the Impact of Economic and Social Dynamics on Income Disparities in the Era of Globalization. *SAGE Open*, 15(3), 21582440251363691. <https://doi.org/10.1177/21582440251363691>.

8 Ruiz-Rodríguez, F., Lucendo-Monedero, Á. L., & González-Relaño, R. M. (2025). Regional trajectories and disparities of the relationship between information society and sustainable development goals in Europe with the emergence of COVID-19. *Regional Science Policy & Practice*, 17(6), 100187. <https://doi.org/10.1016/j.rspp.2025.100187>.

9 Kouskoura, A., Kalliontz, E., Skalkos, D., & Bakouros, I. (2024). Assessing the key factors measuring regional competitiveness. *Sustainability*, 16(6), 2574. <https://doi.org/10.3390/su16062574>.

10 Liu, H., Wang, X., Wang, Z., & Cheng, Y. (2024). Does digitalization mitigate regional inequalities? Evidence from China. *Geography and Sustainability*, 5(1), 52-63. <https://doi.org/10.1016/j.geosus.2023.09.007>.

11 Hu, S., Jie, Y., & Zhu, S. (2026). Digitalization and configurational effects on regional income inequality: analysis of panel data from 134 economies. *Technological and Economic Development of Economy*, 32(1), 146-179. <https://doi.org/10.3846/tede.2025.23950>.



Germaniyada Sharqiy mintaqalarda, ya'ni yangi federal yerlar hududlarida, jon boshiga to'g'ri keladigan GDP darajasi 1990-yildagi 37 % ko'rsatkichdan 2024–2025-yillarga kelib 79 % ga yetgan (BMWE). Ushbu natijalarga erishishda federal transferlar (YAIMning taxminan 10–33 % i), innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish hamda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, joyga asoslangan grantlar (place-based grants) va Yevropa Ittifoqi koheziya jamg'armalari bilan muvofiqlashtirilgan siyosat hududiy konvergentsiyani tezlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xitoyda esa muvofiqlashtirilgan rivojlanish siyosati, qishloqlarni revitalizatsiya qilish dasturlari, yashil moliya mexanizmlari hamda “Bir kamar, bir yo'l” tashabbusi doirasida Sharq va G'arb mintaqalari o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Infratuzilma, sog'liqni saqlash va raqamlashtirish sohalarida G'arb va Markaziy mintaqalarning o'sish sur'atlari Sharqiy hududlarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu hududiy muvozanatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, ushbu tajriba Williamsonning “teskari U-shaklli” (inverted U-shaped) gipotezasini tasdiqlaydi, ya'ni iqtisodiy o'sishning dastlabki bosqichlarida tafovutlar kuchayadi, keyingi bosqichlarda esa ularni bosqichma-bosqich kamaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida ushbu muammo globalizatsiya, texnologik shoklar (avtomatlashtirish va sun'iy intellekt), iqlim o'zgarishi hamda geosiyosiy risklar ta'siri ostida tobora murakkablashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda mintaqaviy tengsizlik, jumladan, 90-persentil va 10-persentil mintaqalar o'rtasidagi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YalM) farqining qariyb 70 % ni tashkil etishi, iqtisodiy konvergentsiya sur'atlarini sekinlashtirmoqda, bu esa iqtisodiy o'sish dinamikasi va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatmoqda. Adabiyotlar sharhi fazoviy (spatial) effektlar, ya'ni qo'shni mintaqalar o'sishining o'zaro ta'siri, iqtisodiy tizimlarning chidamliligi (resilience) hamda raqamlashtirishning tengsizlikka ta'siri muhim omillar ekanini ko'rsatadi; xususan, raqamlashtirish qoloq mintaqalarda nisbatan yuqori marjinal samara berishi mumkin bo'lsa-da, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarning saqlanib qolishiga olib kelmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, Yevropa Ittifoqining koheziya siyosati, AQShning joyga asoslangan siyosatlari (place-based policies), Germaniyaning federal transfer mexanizmlari hamda Xitoyning “Bir kamar, bir yo'l” tashabbusini rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy holati bilan solishtirish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda joyga asoslangan siyosatlar orqali iqtisodiy konvergentsiya sur'atlari yiliga o'rtacha 1–2 % ni tashkil etmoqda, biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda transferlar va investitsiyalarning asosan markazlashgan holda taqsimlanishi sababli mintaqaviy farqlarni qisqartirish jarayoni nisbatan sekin kechmoqda. Ushbu xulosalar empirik dalillar bilan tasdiqlanib, mintaqaviy tafovutlarni kamaytirishning samarali mexanizmlari sifatida fiskal decentralizatsiyani kuchaytirish, kasbiy ta'lim va inson kapitalini rivojlantirish, shuningdek, raqamli va yashil o'tishni qo'llab-quvvatlash muhimligini asoslaydi.

Xususan, Yevropa Ittifoqi tajribasiga tayangan holda rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy YalMning 5–10 % ini qoloq mintaqalarga yo'naltirilgan maxsus fond orqali taqsimlash infratuzilmani, jumladan, transport va raqamli tarmoqlarni rivojlantirish hamda yashil energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali konvergentsiya sur'atlarini 1–2 % ga oshirish imkonini beradi; AQSh va Germaniya tajribasiga asoslangan dual ta'lim tizimini joriy etish, jumladan, bepul jamoa kollejlari va STEM ko'nikmalarini rivojlantirish dasturlari bandlik imkoniyatlarini kengaytirib, ishsizlik darajasini 1–2 % ga qisqartirishga xizmat qilishi mumkin; Xitoyning “Bir kamar, bir yo'l” tashabbusi doirasidagi yondashuv esa qoloq mintaqalarda raqamlashtirishni, xususan, sun'iy intellekt va internet infratuzilmasini rivojlantirish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali, jumladan, qishloq hududlarini rivojlantirish (revitalizatsiya) dasturlari vositasida qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish va iqlim o'zgarishiga moslashuvchanlikni kuchaytirish imkonini beradi. Umuman olganda, ushbu takliflar ilmiy adabiyotlar tahlili va empirik natijalarga asoslanib ishlab chiqilgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda mintaqalar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni bosqichma-bosqich qisqartirishga amaliy hissa qo'shishi mumkin, biroq ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bluedorn, J., Lian, W., Novta, N., & Timmer, Y. (2019, October 9). Widening gaps: Regional inequality within advanced economies. IMF Blog. <https://www.imf.org/en/blogs/articles/2019/10/09/widening-gaps-regional-inequality-within-advanced-economies>.
2. Chancel, L., Gómez-Carrera, R., Moshirif, R., Piketty, T., Bauluz, L., Brassac, P., et al. (2025). Regional wealth inequality. In L. Chancel, R. Gómez-Carrera, R. Moshirif, & T. Piketty (Coords.), World Inequality Report 2026. World Inequality Lab. <https://wir2026.wid.world/insight/regional-wealth-inequality>.



3. Cook, W. (2024). AI's impact on regional economic development [White paper]. Center for Regional Economic Competitiveness. <https://www.crec.net/2024/12/ais-impact-on-regional-economic-development-embracing-opportunities-and-mitigating-risks>.
4. United Nations Department of Economic and Social Affairs. (2025). The Sustainable Development Goals Report 2025. United Nations. <https://doi.org/10.18356/9789211071597>.
5. Chrisendo, D., Niva, V., Hoffmann, R., Masoumzadeh Sayyar, S., Rocha, J. C., Jalava, M., & Kummu, M. (2025). Rising income inequality across half of global population and socioecological implications. *Nature Sustainability*, 8(12), 1601–1613. <https://doi.org/10.1038/s41893-025-01689-4>.
6. Floerkemeier, H., Spatafora, N., & Venables, A. J. (2021). Regional disparities, growth, and inclusiveness (IMF Working Paper No. 2021/038). International Monetary Fund. <https://www.imf.org/-/media/files/publications/wp/2021/english/wpiea2021038-print-pdf.pdf>.
7. Zhang, G., Xie, J., Haq, S. U., & Shahbaz, P. (2025). Global trends and local divides: Investigating the impact of economic and social dynamics on income disparities in the era of globalization. *SAGE Open*, 15(3), 21582440251363691. <https://doi.org/10.1177/21582440251363691>.
8. Ruiz-Rodríguez, F., Lucendo-Monedero, Á. L., & González-Relaño, R. M. (2025). Regional trajectories and disparities of the relationship between information society and sustainable development goals in Europe with the emergence of COVID-19. *Regional Science Policy & Practice*, 17(6), 100187. <https://doi.org/10.1016/j.rspp.2025.100187>.
9. Kouskoura, A., Kalliontzi, E., Skalkos, D., & Bakouros, I. (2024). Assessing the key factors measuring regional competitiveness. *Sustainability*, 16(6), 2574. <https://doi.org/10.3390/su16062574>.
10. Liu, H., Wang, X., Wang, Z., & Cheng, Y. (2024). Does digitalization mitigate regional inequalities? Evidence from China. *Geography and Sustainability*, 5(1), 52–63. <https://doi.org/10.1016/j.geosus.2023.09.007>.
11. Hu, S., Jie, Y., & Zhu, S. (2026). Digitalization and configurational effects on regional income inequality: Analysis of panel data from 134 economies. *Technological and Economic Development of Economy*, 32(1), 146–179. <https://doi.org/10.3846/tede.2025.23950>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>